



“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi prezidenti,
Jamg‘arma faoliyatini
boshqarish va uning
mablag‘larini taqsimlash
bo‘yicha kengash raisi

_____ **Sh.A. Ayupov**

2026-yil “11”- sentabr

Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini
taqsimlash bo‘yicha kengash majlisining
5-son BAYONNOMASI

11-sentabr 2026-yil

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi:

Sh.A. Ayupov – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi prezidenti, Jamg‘arma faoliyatini boshqarish va uning mablag‘larini taqsimlash bo‘yicha kengash (keyingi o‘rinlarda – Kengash) raisi.

Qatnashdilar:

Kengash a‘zolari, taklif etilganlar (*ro‘yxat bo‘yicha*);

majlisda Kengashning barcha a‘zolari ishtirok etdi. Kengash majlisi vakolatli hisoblanadi.

KUN TARTIBI:

Tayanch doktorantura izlanuvchilariga nomli stipendiyalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni ko‘rib chiqish va tasdiqlash to‘g‘risida.

(Ayupov, Ashurov, Jo‘raboyev ... Ayupov)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda PQ-390-sonli qarori 7-ilovasi bilan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi jamg‘armasi mablag‘lari yo‘naltiriladigan xarajatlar yo‘nalishlari” tasdiqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-mayda 260-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining jamg‘armasi to‘g‘risida”gi nizomning 6-bandiga asosan Jamg‘arma mablag‘lari yo‘naltiriladigan xarajatlarni moliyalashtirish tartibi Kengash qarori bilan tasdiqlanishi belgilangan.

Shunga muvofiq, Fanlar akademiyasining Ilmiy kadrlar bo‘limi va Jamg‘arma faoliyatini tashkil etish bo‘limi (keyingi o‘rinlarda – Ishchi organ) bilan

birgalikda “Tayanch doktorantura izlanuvchilariga nomli stipendiyalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) loyihasi ishlab chiqildi.

Nizom loyihasi Fanlar akademiyasining vitse – prezidentlari va tegishli bo‘linmalari bilan kelishildi.

Shu bilan birga, Ilmiy kadrlar bo‘limi va Ishchi organ tomonidan Jamg‘arma mablag‘laridan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida **Fanlar akademiyasi Prezidiumi qarori bilan ta‘sis etilgan nomli stipendiyalar tanlovini 2026-yil 15-sentabrdan tashkil etish** taklif etilmoqda.

Nizom loyihasi ko‘rib chiqish va tegishli qaror qabul qilish uchun ilovaga muvofiq kiritilmoqda.

Kun tartibidagi masalani ko‘rib chiqib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Tayanch doktorantura izlanuvchilariga nomli stipendiyalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizom **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Ilmiy kadrlar bo‘limi va Ishchi organning nomli stipendiyalar tanlovini 2026-yil 15-sentabrdan tashkil etish taklifi ma‘qullansin.

3. Mazkur yig‘ilish bayonnomasi bilan belgilangan topshiriqlar bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Bayonni tuzuvchi:
Kengash kotibi
M.Nazirov